

AMIR TEMUR DAVRIDA ILM-FAN RIVOJI.

Jaloliddin Usmonqulov Anvar o'g'li.

DTPI Tadbirkorlik va boshqaruv fakulteti talabasi.

[Tel:+998902253530](tel:+998902253530)

Jaloliddinusmonqulov178@gmail.com

Annotatsiya: ushbu maqolada Amur Temur davrida o'rta osiyoda faoliyat yuritgan olimlar haqida ma'lumotlar berilgan bo'lib hisoblanadi, shuningdek manbalar tahlili asosida yoritilgan.

Kalit so'zlar: "Temur tuzuklari", Sharafiddin Ali Yazdiyning "Zafarnoma", Qur'oni Karimning, 13 kitobini, al-Kindiy, Beruniy tomonidan, Nasriddin Tusiy.

Amir Temur davrida ilm-fanning taraqqiy etishiga ta'sir ko'rsatgan omillar haqida gapirar ekanmiz, birinchi navbatda, Sohibqironning mamlakatda qat'iy tartib o'rnatishga erishganini har bir ishni, shu jumladan, ilm va ta'lim ishlarini belgilangan qonun va qoidalarga muvofiq amalga oshirganini, bu qonun-qoidalarni esa saltanatdagi kishilarning turli xil toifalari bilan bog'lab tuzganini ta'kidlab o'tish zarur. Bu haqda "Temur tuzuklari"da quyidagi so'zlar bitilgan: "Saltanatim martabasiga zebu ziynat berdim. Saltanatimni o'n ikki toifaga bo'lib, ularga tayangan holda ish yurgizdim. Saltanatim qonun-qoidalarini ham ana shu o'n ikki toifaga bog'lab tuzdim" [1]. Amir Temurning ulamo, fuzalo, fozillar toifasiga (birinchi toifa) alohida e'tibor bergani, ularni o'ziga yaqinlashtirishga harakat qilgani, davlat miqyosida amalga oshiriladigan tadbirlarni belgilash, muhim qarorlar qabul qilishdan avval kengashlar chaqirib, ular bilan maslahatlashgani Sohibqironning ilm-fan ahliga katta ishonch bildirganligidan dalolat beradi. Temur kengashib, maslahatlashib o'tkazilgan tadbir sanoqsiz lashkar o'z qizlik qilgan kuchni yengishga imkon beradi, deb hisoblagan. Ana shuning uchun ham u olimlar va ruhoniylargamurojaat qilib, ulardan mamlakatni boshqarishda o'z maslahatlari bilan yordam berishlarini so'ragan. Bu jihatdan Sharafiddin Ali Yazdiyning "Zafarnoma" kitobi berilgan Amir Temurning yangidan bunyod etilgan Boilkan shahrida olim fuzalolar bilan o'tkazgan kengashi haqidagi ma'lumot diqqatga sazovordir. Bu kengashdagi nutqida u shunday degan: "Fan va dinning mashhur kishilari o'z maslahatlari bilan podshohlarga yordam berib kelganlar. Sizlar esa menga nisbatan bunday qilmayapsizlar. Mening maqsadim, mamlakatda adolat o'rnatish, tartib va tinchlikni mustahkamlash, fuqaroning turmushini yaxshilash, yurtimizda qurilishni kuchaytirish, davlatimizni rivojlantirishdir. Sizlar bu ishlarni amalga oshirishda menga o'z maslahatlaringiz bilan ko'maklashishlaringiz kerak". Amir Temurning ilm-fan ahliga bo'lgan munosabati davlatni idora qilish, saltanat saroyida o'tirish, maoshlar tayinlash va shu kabilar tuzuklarda alohida qayd qilingan. Xususan,

u olimlar, donishmandlarga saroyda o'tkaziladigan majlislarda o'zining o'ng tarafidan ul kishilar uchun mo'ljallangan tomonidan o'rin bergan. Umrining ko'p qismini harbiy yurishlarda o'tkazgan Amir Temur safarlarda ham olimlar bilan hamsuhbat bo'lar edi. Jumladan, Damashq muhosara qilingan paytda, mashhur arab tarixchisi va mutafakkiri ibn Xaldun (1332 – 1406) bilan suhbatda bo'lgan. Uchrashuv chog'ida mashhur tarixchi Sohibqironga Qur'oni Karimning go'zal bir nusxasini hadya qiladi va Amir 57 Temur o'rnidan turib, muqaddas kitobni o'pib, boshiga qo'ygan [2]. Xuddi ana shunday hurmat va ehtiromni Sohibqiron o'zi zabt etgan mamlakatlardagi olim-u fuzalo, dono kishilarga nisbatan ham ko'rsatgan "Qaysi mamlakatni zabt etgan bo'lsam, – deb ta'kidlaydi bu haqda Amir Temur, – o'sha yerning obro'-e'tiborlik kishilarini aziz tutib, sayyidlari, ulamolari, fuzalo va mashoyixlariga ta'zim bajo keltirdim va hurmatladim, ularga suyurg'ol, vazifalar berib, maoshlarini belgiladim". Temur davrida ilm-fanning qaytadan rivoj topishiga ta'sir ko'rsatgan omillardan yana biri qo'shni mamlakatlar, ayniqsa Xitoy, Hindiston bilan iqtisodiy va madaniy aloqalarning kuchayishi bo'ldi. Turli mamlakatlardagi ilmiy markazlar, olimlar o'rtasida aloqalarning o'rnatilishi, xalqlarning bir-birining tarixiy madaniyatini o'rganishi, ilm-fan sohasidagi erishgan natijalari bilan tanishishi ilmiy bilimlar taraqqiyoti uchun qulay sharoit tug'dirgan. Temur saltanatida ilm-fanning taraqqiy etishida o'tmish madaniyati, boyliklarini o'rganishga e'tibor berilishi ham muhim ahamiyatga ega bo'ldi. Bu davr olimlari qadimgi Yunoniston mutafakkirlarining ilmiy meroslari, xususan, Arastu asarlarining al-Kindiy tomonidan amalga oshirilgan tarjimai, Evklidning matematikaga oid 13 kitobini o'z ichiga olgan "Asoslar" asarining, Ptolomeyning "Almagest" kitobining Beruniy tomonidan sanskrit tiliga tarjimalari va shu kabilar bilan tanish edilar. Ularda Xitoy va hind olimlarining riyoziyot, falakiyot, tibbiyot, kimyo, adabiyot, tarix kabi ilm sohalaridagi tadqiqotlariga, chunonchi, hindlarning "Kalila va Dimna" asariga bo'lgan qiziqishi kuchli edi. Shuningdek, XIV-XV asrlarda ilm-fanning yuksalishi uchun IX-XII asrlarda O'rta Osiyoda yaratilgan madaniyatning, xususan, Xorazmiy, Forobiy, ibn Sino, Beruniy, Umar Hayyom, Nasriddin Tusiy kabi jahonga mashhur bo'lgan allomalar ilmiy merosining g'oyaviy manba bo'lib xizmat qilganligini alohida ta'kidlab o'tish zarur. Yuqorida qayd etib o'tilgan omillar va boshqa shunga o'xshash hodisalar O'rta Osiyoda ilm-fanning istilolar, siyosiy vaziyatlarining o'zgarish ta'sirida taraqqiyotdan to'xtab qolishga yo'l qo'ymagan va ilmiy bilimlar rivojida vorislikning saqlanishiga yordam bergan. Bunday vorislikni Temur va Temuriylar davridagi ilm-u fan taraqqiyotining barcha yo'nalishlarida, xususan, riyoziyot sohasida kuzatish mumkin. Taniqli gollandiyalik matematik va fan tarixi bilimdoni D. Y. Stroykning fikricha, "islom dunyosida bo'lgan ko'p urushlar, siyosiy va etnologik o'zgarishlar matematika va astronomiya rivojida yuksalish na qulashlarga sabab bo'lsa-da, ilmiy markazlardan birining yo'qolishi va boshqalarining paydo bo'lishiga

olib kelgan bo'lsa-da, bu fanlarning umumiy xarakteri, taraqqiyotining asosiy yo'nalishiga ta'sir eta olmagan" [3]. Haqiqatan ham al-Xorazmiyning asarlaridagi hindlarning o'nlik sanoq sistemasining talqini va rivojlantirilishi, "Kitob al-jabr nal-muqobala"da taklif qilingan tenglamalarni yechishning ikki xil usuli va shu kabi muhim kashfiyotlar al-Koshiyning o'nlik kasrlarni ixtiro qilishida, uchinchi darajali tenglamalarni yechish usulini topishida va umuman, yuqori darajali algebraik tenglamalarni yechish metodini ko'rsatishda o'z davomini topgan va chuqurlashtirgan bo'lib, riyoziyotdagi algoritmik-algebraik ruhning mustahkamlanishiga xizmat qilgan. Shunisi diqqatga sazovorki, islom mamlakatlarida riyoziyot aynan ana shu algoritmik-algebraik yo'nalishda qadimgi dunyodagi riyoziyotga nisbatan ilgari ketgan va u darajaga G'arbiy Yevropada faqat XVI asrdagina erishgan. Yana shuni aytish kerakki, XIX asr o'rtalarigacha algebrada uning Sharqdan kelib chiqqanligi, aksiomatik metodning ishlatilmasligi bilan Evklid geometriyasidan keskin farq qilishi sezilib turgan. Ularning kelib chiqishidagi farq hatto hozirgi paytdagi algebra va geometriyaga oid maktab darsliklarida ham sezilib turadi. Albatta, yuqorida bildirilgan fikrlar islom mamlakatlarida, shu jumladan, Temur va Temuriylar boshqargan davlatda riyoziyotning boshqa yo'nalishlarida tadqiqotlar yetarli darajada olib borilmagan, degan ma'noni anglatmaydi. Buni tasdiqlovchi dalillar mavjud. Masalan, Umar Hayyomning "Evklid kitobining qiyin postulatlariga sharhlar" asarida Evklidning parallel chiziqlar haqidagi postulatini isbot qilishga urinib, to'rtburchakning o'tkir, o'tmas va to'g'riburchaklari to'g'risida ko'rgan uchta farazi, ilgari surgan g'oyalari Nasriddin Tusiy asarlarida tasdiqlanadi. hamda keyinchalik al-Koshiyning aylananing uzunligini o'lchashi, p sonining qiymatini aniqlashi bilan to'ldiriladi. Riyoziyotning bu yo'nalishida qilingan ishlar geometrik trigonometriyalarni yuksak cho'qqilarga ko'tarib, XIX asrda noevkli geometriyasini yaratishi uchun zarur shart-sharoitlarini tashkil etgan.

Xulosa qilib shuni aytish mumkinki, Amur Temur chinakam ilm-ma'rifat rovojiga hissa qo'shgan ma'rifatparvar hukmdorlardan biri ekan.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Usmonov Q. "O'zbekiston tarixi". Toshkent, 2016 yil B-67.
2. Temur tuzuklari. – T., 1991. – B.64.
3. Maxsudov D. Amir Temur saltanatida ilm-fan rivoji xususida . – T.: "Navro'z", 2014. – B.226-228.
4. Choriyev A. Sohibqiron ma'naviyati. – T.: "Yangi asr avlodi", 2021. – B.53.